

ISATIS TINCTORIA L. O'SIMLIGINING FARMOKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ TABOBATIDA QO'LLANILISHI

Yusupova M.R.
Toshtemirova Ch.T.

Osiyo xalqaro universiteti, Urganch sh., Xorazm vil., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: muattaryusupova3@gmail.com, tel: 97-771-88-68

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18814734>

Kalit so'zlar: *Isatis tinctoria* L., dorivor o'simlik, viruslarga qarshi, antibakterial, yallig'lanishga qarshi, farmakologik xususiyat, xalq tabobati, fitoterapiya, alkaloidlar, flavanoidlar, polisaxaridlar

Mavzuning dolzarbligi: *Isatis tinctoria* L. – qadimdan viruslarga qarshi, antibakterial va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan dorivor o'simlik. Zamonaviy tibbiyot va fitoterapiya sohasida tabiiy, samarali hamda xavfsiz dori vositalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan dorivor o'simliklarning farmakologik xususiyatlarini ilmiy asosda chuqur o'rganish, ularning biologik faol moddalari tarkibini aniqlash hamda xalq tabobatida qo'llanilish tajribasini ilmiy jihatdan tahlil qilish va asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: *Isatis tinctoria* L. o'simligining farmakologik xususiyatlarini aniqlash va uning xalq tabobatida qo'llanilishining ilmiy asoslarini o'rganish.

Material va metodlar: Tadqiqot jarayonida PubMed, MDPI, ScienceDirect kabi ilmiy ma'lumotlar bazalaridagi maqolalar, farmakopeya ma'lumotlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. O'simlikning biologik faol moddalari va farmakologik faolligi bo'yicha in vitro va in vivo tadqiqot natijalari umumlashtirildi hamda xalq tabobatidagi qo'llanilishi bilan solishtirildi.

Natijalar: O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirish natijasida *Isatis tinctoria* L. o'simligi tarkibida farmakologik jihatdan muhim bo'lgan bir qator biologik faol moddalar mavjudligi aniqlangan. Jumladan, o'simlik tarkibida alkaloidlar (indirubin, tryptanthrin), flavonoidlar, fenol birikmalar, polisaxaridlar, glikozidlar va boshqa ikkilamchi metabolitlar aniqlangan. Ushbu birikmalar o'simlikning asosiy farmakologik faolligini ta'minlovchi komponentlar hisoblanadi. Xalq tabobatida *Isatis tinctoria* L. o'simligining ildizi va barglari qadimdan dorivor vosita sifatida keng qo'llanilib kelinadi. Xususan, ushbu o'simlik shamollash, gripp, respirator infeksiyalar, tomoq yallig'lanishi, teri kasalliklari hamda turli yallig'lanish jarayonlarini davolashda samarali vosita sifatida ishlatiladi. O'simlikdan tayyorlangan damlama, qaynatma va ekstraktlar organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, olingan natijalar *Isatis tinctoria* L. o'simligining biologik faol moddalarga boy ekanligini hamda keng farmakologik faollikka ega dorivor o'simlik sifatida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa: *Isatis tinctoria* L. o'simligi xalq tabobatidagi an'anaviy qo'llanilishi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi. Farmakologik faol moddalarining mavjudligi uni klinik va fitoterapiya sohasida samarali va xavfsiz vosita sifatida ishlatish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'simlikni xalq tabobatidagi an'anaviy qo'llanilishi ilmiy asos bilan izohlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. *Isatis tinctoria* L. (Woad): botany, ethnobotanical uses, phytochemistry, biological

activities. PubMed, 2020. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32121532/>

2. Encyclopedia MDPI, Medicinal applications of *Isatis tinctoria* and TCM use. <https://encyclopedia.pub/entry/518>

3. ScienceDirect, Anti-inflammatory and antioxidant effects of *Isatis tinctoria*. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2667142522000823>

4. ScienceDirect, Pharmacological potential of total flavonoid extract from *Isatis tinctoria*